

Rizoyeva Muslima Raxmonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIMDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA NOAN'ANAVIY TASVIRIY TEXNIKALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda noan'anaviy tasviriy texnikalarning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda barmoq bilan rasm chizish, monoprint, kollaj va tabiiy materiallar bilan ishlash kabi innovatsion usullar orqali originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi va refleksiya kabi kreativ komponentlarning rivojlanishi asoslangan. Shuningdek, texnikalarni qo'llashning metodik algoritmi va samaradorlik shartlari tahlil qilingan. Natijada noan'anaviy tasviriy texnikalar tasviriy faoliyatni ijodiy jarayonga aylantiruvchi samarali didaktik vosita ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, noan'anaviy tasviriy texnikalar, maktabgacha ta'lim, tasviriy faoliyat, ijodiy rivojlanish, didaktik vositalar, innovatsion metodlar, refleksiya, originallik, moslashuvchanlik

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ НЕТРАДИЦИОННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ТЕХНИК

Аннотация. В данной статье освещаются дидактические возможности нетрадиционных изобразительных техник в развитии креативного мышления детей в дошкольных образовательных организациях. В исследовании обосновано развитие таких компонентов креативности, как оригинальность, гибкость, беглость идей и рефлексия, посредством применения инновационных методов, включая рисование пальцами, монотипию, коллаж и работу с природными материалами. Также проанализированы методический алгоритм применения данных техник и условия их эффективности. В результате установлено, что нетрадиционные изобразительные техники являются эффективным дидактическим средством, превращающим изобразительную деятельность в творческий процесс.

Ключевые слова: креативное мышление, нетрадиционные изобразительные техники, дошкольное образование, изобразительная деятельность, творческое развитие, дидактические средства, инновационные методы, рефлексия, оригинальность, гибкость

DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL EDUCATION THROUGH NON-TRADITIONAL VISUAL ART TECHNIQUES

Annotation. This article highlights the didactic potential of non-traditional visual art techniques in developing creative thinking among children in preschool educational institutions. The study substantiates the development of creative components such as originality, flexibility, fluency of ideas, and reflection through the use of innovative methods, including finger painting, monoprinting, collage, and working with natural materials. In addition, the methodological algorithm for applying these techniques and the conditions for their effectiveness are analyzed. As a result, it is determined that non-traditional visual art techniques serve as an effective didactic tool that transforms visual activity into a creative process.

Keywords: creative thinking, non-traditional visual techniques, preschool education, visual activity, creative development, didactic tools, innovative methods, reflection, originality, flexibility

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning tafakkuri, tasavvuri va ijodiy salohiyati shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Shu bois ushbu bosqichda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, bolalarning erkin fikrlashi va mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biridir.

An'anaviy tasviriy faoliyat ko'pincha tayyor namunaga asoslangan bo'lib, bolalarda reproduktiv fikrlashni shakllantiradi. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar bolani faol subyekt sifatida ko'rib, uning ijodiy izlanishiga keng imkon yaratishni talab etadi [1]. Shu nuqtai nazardan, noan'anaviy tasviriy texnikalar tasviriy faoliyatni yangicha mazmun bilan boyitib, bolani tajriba qilishga, noodatiy yechimlar topishga va o'z g'oyalarini erkin ifodalashga undaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirishda noan'anaviy tasviriy texnikalar (innovatsion san'at usullari) metodik jihatdan muhim o'rin tutadi. An'anaviy rasm chizish (qalam yoki bo'yoq bilan) ko'proq standart harakatlarni talab qilsa, noan'anaviy texnikalar bolani tajribaga, izlanishga, "boshqacha qilish"ga va yangi natijalarni sinab ko'rishga undaydi [2]. Bunday faoliyat jarayonida bola nafaqat tasviriy ko'nikmalarni egallaydi, balki ijodiy fikrlaydi, variantlar yaratadi, material xususiyatini anglaydi va o'z g'oyasini noodatiy badiiy vositalar orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada tasviriy faoliyat mashg'ulotlari reproduktiv yondashuvdan ijodiy izlanish va tajriba maydoniga aylanadi.

Noan'anaviy tasviriy texnikalar innovatsion didaktik vosita sifatida bolalarda kreativ fikrlashning quyidagi komponentlarini kuchli rivojlantiradi:

- originallik (yangicha badiiy yechim);
- moslashuvchanlik (turli material va texnikani tanlash);
- g'oyalar oqimi (ko'proq variant yaratish);
- detallashtirish (kompozitsiyani boyitish);
- mustaqillik (o'zi sinab ko'rish);
- refleksiya (jarayonni tushuntirish va baholash).

Noan'anaviy tasviriy texnikalar – bu rasm va badiiy ishlarni bajarishda standart usullardan tashqari, turli materiallar, predmetlar va ijodiy harakatlar orqali tasvir yaratish usullari bo'lib, ular bolani tajriba qilishga undaydi. Mazkur texnikalar maktabgacha ta'limda quyidagi metodik vazifalarni hal etadi:

- bolalarda tasviriy faoliyatga qiziqishni oshiradi;
- badiiy tajribani boyitadi va sezgi-idrokni kuchaytiradi;
- obrazli tafakkur va tasavvurni faollashtiradi;
- ijodiy mustaqillik hamda erkin tanlovni rivojlantiradi;
- ijod jarayonida ijobiy emotsional holatni ta'minlaydi.

Demak, noan'anaviy texnikalar kreativ fikrlashni rivojlantirishda metodik "katalizator" vazifasini bajaradi.

Quyida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash mumkin bo'lgan eng samarali texnikalar, ularning mazmuni va kreativ fikrlashga ta'siri yoritiladi (1- jadvalga qarang).

1- jadval

Noan'anaviy tasviriy texnikalar banki

	Texnika nomi	Mohiyati	Afzalligi	Misol mavzular / topshiriqlar	Kreativ fikrlashga ta'siri
	Barmoq bilan rasm chizish (Finger painting)	Bo'yoq bilan barmoq orqali ishlash	Sezgi-idrok va emotsional ifoda kuchayadi, bola erkin bo'ladi	"Bulutlar", "Gullar", "Baliqlar", "O'rmon"	Originallik + g'oyalar oqimi + mustaqillik
	Tampon (gubka) bilan bosma rasm	Gubka/tampon orqali bo'yoq	Tez natija beradi, tekstura va effektlar xilma-xil bo'ladi	"Kuzgi barglar", "Gullar"	Moslashuvchanlik +

		bosib tasvir hosil qilish		maydoni", "Qor yog'ishi"	detallashtiris h
	Monoprint (bir martalik bosma)	Tekis yuzaga bo'yoq surtilib qog'oz bosiladi	Har safar noyob natija chiqadi, bola hayratlanadi	"Suvdagi aks", "Sehrli bulutlar", "Abstrakt manzara"	Originallik + fantaziya + refleksiya
	Dog'lardan rasm yaratish (Blot drawing)	Tomchi/dog' hosil qilib undan obraz topish	Assotsiativ fikrlash kuchli ishlaydi	"Dog'dan hayvon top", "Sehrli dog'"	G'oyalar oqimi + originallik
	Ip bilan rasm (String art / ip izlari)	Bo'yoqqa botirilgan ip orqali iz qoldirish	Noodatiy chiziqlar tasavvurni kuchaytiradi	"Daraxt shoxlari", "Dengiz to'lqinlari", "Sehrli yo'llar"	Moslashuvch anlik + detallashtiris h
	Shablon va trafaret bilan ijodiy rasm	Shakl bo'yab chiqilib obraz yaratiladi	Kichik yosh uchun qulay, kreativ kombinatsiyaga imkon beradi	"Doira ichida ertak", "Uchburchakdan manzara"	Assotsiatsiya + kompozitsion fikrlash
	Kollaj texnikasi (Collage)	Turli materiallar(qog' oz, mato, gazeta ...)dan kompozitsiya tuzish	Tanlov erkinligi va kompozitsion fikrlash yuqori bo'ladi	"Menimcha shahar", "Tabiat manzarasi", "Orzular dunyosi"	Originallik + detallashtiris h + mustaqillik
	Mozaika va applikasiyanin g kreativ shakllari	Bo'laklardan tasvir hosil qilish	Mayda motorika va rejalash rivojlanadi	"Rangli baliq", "Gilam naqshi", "Quyosh va bulut"	Rejalash + detallashtiris h + moslashuvch anlik
	Tabiiy materiallar bilan tasvir (eco-art)	barg, don, qum, tosh, urug', somon, gul yaprog'i orqali obraz yaratish shlash	Ekologik tarbiya va kreativ yechim rivojlanadi	"Kuzgi kompozitsiya", "Tabiatdan rasm", "Bargli hayvon"	Originallik + moslashuvch anlik
0	Plastilin va loy bilan modellash (3D art)	Uch o'lchamli obraz yaratish	Shaklni his qilish kuchayadi, tafakkur va tasavvur uyg'unlashadi	"Ertak qahramoni", "Mevalar", "Hayvonlar"	Detallashtiris h + mustaqillik + refleksiya
1	Qirgib- yopishtirishning ijodiy variantlari	Erkin kombinatsiyali applikasiya	G'oya yaratish va moslashuvchanlikni kuchaytiradi	"Qog'ozdan yangi hayvon yarat", "Shakllardan uy qur"	G'oya oqimi + moslashuvch anlik
2	Qum bilan rasm	qumli yuzada rasm chizish yoki yelim ustiga qum sepish	sezgi + emotsional barqarorlik	"Qumda manzara", "Qumli obrazlar"	tasavvur + mustaqillik

Noan'anaviy texnikalarni tasviriy mashg'ulotlarda qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim didaktik vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun metodik jihatdan izchil, bosqichma-bosqich yondashuv zarur. Shu nuqtai nazardan, noan'anaviy texnikalarni joriy etish quyidagi metodik algoritmi asosida tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Avvalo, ilhomlantirish bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarda qiziqish va ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi turli vositalardan foydalanadi. Jumladan, ko'rgazmali materiallar, ertak syujetlari, tabiat hodisalari yoki real predmetlar orqali bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Masalan, "Bugun biz boshqacha rasm chizamiz!" kabi yo'naltiruvchi iboralar orqali bolalarda yangilikka bo'lgan qiziqish uyg'otiladi. Bu bosqich motivatsion-psixologik asosni shakllantirib, keyingi faoliyat uchun zamin yaratadi.

Keyingi bosqich – texnikani qisqa ko'rsatish bo'lib, bunda tarbiyachi tanlangan noan'anaviy texnikaning bajarilish usulini namoyish etadi. Biroq bu jarayonda yakuniy natijani ko'rsatish emas, balki faqat harakat usulini tushuntirish muhim hisoblanadi. Chunki tayyor namunani ko'rsatish bolalarda nusxa ko'chirishga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun "Mana shunday bosib ko'ramiz..." kabi ifodalar orqali faqat texnik harakat yo'nalishi beriladi. Bu yondashuv bolalarning mustaqil fikrlashini cheklamasdan, ijodiy erkinlikni ta'minlaydi.

Uchinchi bosqich – erkin tanlov bosqichi bo'lib, bunda bolaga rang, material va kompozitsiyani mustaqil tanlash imkoniyati beriladi. Bu jarayon bolalarning individual xususiyatlarini namoyon etish, estetik didini shakllantirish va qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Qaysi rangni tanlaysan?" kabi savollar orqali tarbiyachi bolaning mustaqil tanlovini rag'batlantiradi. Ushbu bosqich kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan muhim bo'lib, bolada subyektiv tajriba shakllanishiga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich – ijodiy bajarish va tajriba bosqichi bo'lib, unda bola mustaqil ravishda faoliyat olib boradi. Tarbiyachi esa bevosita aralashmay, faqat yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi rolni bajaradi. "Boshqacha qilib ko'r!", "Yana qanday bo'lishi mumkin?" kabi savollar orqali bolada divergent fikrlash va eksperiment qilishga bo'lgan intilish kuchaytiriladi. Bu bosqich faoliyatga asoslangan o'qitish nazariyasi bilan uyg'un bo'lib, nazariy bilimlarning amaliy tajribaga transferini ta'minlaydi.

So'nggi bosqich – taqdimot va refleksiya bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda bola o'z ishini taqdim etadi, uni tushuntiradi va ma'lum darajada baholaydi. "Bu nima?", "Qanday qilding?", "Nega shunday tanlading?" kabi savollar orqali refleksiv fikrlash jarayoni faollashtiriladi. Natijada bola o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa uning kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Noan'anaviy texnikalarni joriy etishning mazkur metodik algoritmi tasviriy faoliyatni tashkil etishda tizimlilik va samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv bolalarning kreativ fikrlashi, mustaqilligi va estetik idrokini rivojlantirish bilan birga, ularning nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga ham imkon yaratadi.

Noan'anaviy texnikalardan foydalanishning samaradorligi, avvalo, ularni qo'llash uchun zarur pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlarning qay darajada yaratilganiga bog'liq. Tasviriy mashg'ulotlarda bunday texnikalar bolalarning kreativ fikrlashi, mustaqil izlanishi va estetik didini rivojlantirishga xizmat qilishi uchun bir qator muhim omillar ta'minlanishi lozim.

Birinchidan, materiallar xilma-xilligi muhim metodik shartlardan biri hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida ranglar, fakturalar, vositalar va ishlash usullarining turli-tuman bo'lishi bolalarda tajriba o'tkazish, solishtirish va yangicha yechim topishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Turli materiallar bilan ishlash jarayoni bolaning sensor idroki, tasavvuri va ijodiy faolligini boyitadi. Shu bois noan'anaviy texnikalarni tashkil etishda bir xil vosita bilan cheklanib qolmasdan, imkon qadar rang-barang materiallar bazasini yaratish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, ijodiy muhitning mavjudligi noan'anaviy texnikalarning natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ijodiy muhit deganda, bolaga erkin fikrlash, mustaqil tanlash va yangicha yo'l tutish imkonini beruvchi pedagogik atmosfera tushuniladi. Bunday muhitda

104 tarbiyachi bolani qo'llab-quvvatlaydi, rag'batlantiradi va uning har bir noodatiy g'oyasiga ijobiy munosabat bildiradi. Natijada bola o'zini erkin his qiladi, xatodan qo'rqmaydi va tasviriy faoliyatda faolroq ishtirok etadi.

Uchinchidan, xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish zarur hisoblanadi. Noan'anaviy texnikalarda ko'pincha turli bo'yoqlar, tabiiy va sun'iy materiallar, yordamchi vositalar qo'llaniladi. Shu sababli mashg'ulot jarayonida gigiyena qoidalariga amal qilish, vositalardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash va tarbiyachi nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda xavfsizlik, sanitariya va tozalik masalalari metodikaning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, bolaga bosim qilmaslik tamoyili alohida ahamiyatga ega. Noan'anaviy texnikalarning mohiyati aynan erkinlik, mustaqillik va individual ifodaga asoslanadi. Shuning uchun tarbiyachi tomonidan "Shunday bo'lishi kerak", "Faqat mana bunday qil" kabi qat'iy ko'rsatmalar berilishi bolaning ijodiy imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, bolaga o'z usulida ishlash, rang va shaklni mustaqil tanlash imkonini berish uning kreativ yondashuvini rivojlantiradi. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga ham to'la mos keladi.

Beshinchidan, jarayonni baholashga ustuvor ahamiyat berish lozim. Noan'anaviy texnikalarda asosiy e'tibor yakuniy natijaga emas, balki bolaning izlanishi, tajribasi, qiziqishi va faol ishtirokiga qaratilishi kerak. Chunki aynan ijodiy jarayon davomida bola yangi usullarni sinab ko'radi, mustaqil qaror qabul qiladi va o'z fikrini ifodalashga o'rganadi. Agar faqat tayyor mahsulot baholansa, bolada tashqi natijaga qaramlik kuchayishi mumkin. Jarayonni qadrlash esa bolaning ichki motivatsiyasini saqlab qoladi va kelgusida ijodiy faoliyatga ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Noan'anaviy texnikalarning samaradorligi ularni qo'llashdagi tashkiliy, metodik va psixologik shartlarning uyg'un ta'minlanishiga bog'liq. Materiallar xilma-xilligi, ijodiy muhit, xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish, bolaga bosim qilmaslik hamda jarayonni baholashga yo'naltirilgan yondashuv tasviriy mashg'ulotlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur shartlar asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarda kreativ fikrlash, mustaqillik va estetik tafakkurning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Bu texnikalarda baholash quyidagi kreativ indikatorlar asosida amalga oshiriladi (2-jadvalga qarang).

2- jadval

Noan'anaviy texnikalar natijasini baholash mezonlari (ko'rsatkichlar)

№	Baholash ko'rsatkichi	Mazmuni
1	Yangicha yondashuv (originallik)	Noodatiy badiiy yechim va yangi g'oya mavjudligi
2	Materialdan foydalanish xilma-xilligi (moslashuvchanlik)	Turli vosita/texnikani tanlashi va qo'llashi
3	Variantlarning ko'pligi (g'oyalar oqimi)	Bir nechta obraz va yechim taklif qilishi
4	Kompozitsiya boyligi (detallashtirish)	Fon va mayda elementlar bilan boyitilishi
5	Mustaqillik darajasi	Namunasiz bajarishi va o'zi sinab ko'rishi
6	Bolaning izohi (refleksiya)	Ish jarayonini tushuntirib bera olishi

Noan'anaviy tasviriy texnikalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni ijodiy jarayonga aylantirib, bolalarda kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirishning samarali metodik vositasi hisoblanadi. Barmoq bilan bo'yash, tampon va monoprint, ip bilan rasm, kollaj, tabiiy materiallar bilan tasvir, dog'lardan obraz topish kabi innovatsion texnikalar bolaning tasavvurini faollashtiradi, erkin tanlov va ijodiy tajriba qilishga imkon beradi hamda kreativ fikrlashning originallik, moslashuvchanlik, detallashtirish va refleksiya kabi komponentlarini izchil rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**105**

1. Adizov B. R. Ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash //J. Boshlang'ich ta'lim. 2000. 6-son. –B. 102–104.
2. Xasanova Sh. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2020. – 192 b.
3. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – 434 с. ISBN 978-5-49807-239-5.
4. Комарова Т. С. Изобразительная деятельность в детском саду: программа и методические рекомендации для занятий с детьми 2–7 лет. – Москва: Мозаика-Синтез, 2010. – 56 с.
5. Подгузова Е. Е. Креативность личности: возможности развития в условиях вуза: монография. – Смоленск, 2011. – 119 с.